1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

### 3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni MHXS talablari asosida takomillashtirish masalalarini moliyaviy natijalarning shakllanish tizimiga integratsiyalashuvining nazariy asoslarini aniqlash va uni shakllantirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

#### Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.

Tadqiqot natijasiga ko'ra, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni MHXS talablari asosida tashkil etishning mohiyati va ahamiyati, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni MHXS talablari asosida tashkil etishning me'yoriy-huquqiy, uslubiy asoslari, moliyaviy natijalarni buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha shakllanishi va amaldagi holati tahlil qilindi.

Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar moliyaviy natijalarning shakllanishi, hisobotda to'g'ri aks etishi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni MHXS talablariga moslashtirish omillarni aniqlash uchun nazariy va uslubiy asoslarni o'rganish hamda ular bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobotlarning transformasiyasini tushunishda ularning qaysi sanadagi holati bo'yicha tuzilishi, ularning asosiy mazmuni mamlakat standartlari asosida tuzilgan hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarga o'tkazishga qaratilganligi, transformasiya jarayonida MHXSlariga mos holda qayta guruhlashtirilishi, qayta tan olinishi, qayta baholanishi, to'g'rilashlar kiritilishi asosida xalqaro talablarga javob beradigan axborotlarni shakllantiradigan yangi tizimga o'zgartirish va boshidan tashkil qilinish jarayoni ekanligiga alohida urg'u berish kerak, deb o'ylaymiz. Moliyaviy hisobotlar bo'yicha tadqiqot natijalaridan kelib chiqib moliyaviy hisobotlar transformasiyasini quyidagicha ta'riflashimiz mumkin:

Moliyaviy hisobotlar transformasiyasi-bu hisobotning ma'lum sanasiga iqtisodiy subyektning moliyaviy holati bo'yicha buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha tuzilgan hisobot komponentlari moddalarini moliyaviy hisobotlarining xalqaro standartlar qoidalariga mos holda qayta guruhlashtirish, ularning moddalarini qaytadan tan olinishi, qaytadan baholanishi, tuzatishlar kiritish va qayta ochiqlashlar asosida MHXSleri hisobotlari axborotlarining yangi tizimiga aylantirish va qaytadan tashkil qilish jarayonidir.

Kompaniya moliyaviy hisobotni MHXSleri asosida tuzish va taqdim qilishni taqozo etadi. Shunday katta imkoniyatlarni ochib beradigan hamda kompaniyaning shaffofligini ta'minlaydigan MHXSleri asosida moliyaviy hisobotni tuzish qanday amalga oshiriladi va unga qanday erishish mumkin. Buning ikkita tan olingan yo'li bor.

Birinchi - BHMSleri bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni MHXSleri asosida transformatsiya qilinishi (1-rasm).




1-rasm. Moliyaviy hisobot transformasiya bosqichlari<sup>3</sup>

3 Toshnazarov Samiddin Nizamovich 'Moliyaviy Hisobotning MHXS bo'yicha transformatsiyasi zarurati, mohiyati va bosqichlari' maqola, 6-bet



Ikkinchi - milliy hisob tizimi bilan yonma-yon MHXSlariga mos parallel hisob tizimini yuritishdir (2-rasm).



2-rasm. MHXSlari bo'yicha paralel hisob yuritish sxemasi<sup>4</sup>

MHXSlariga o'tishda transformatsiya metodini qo'llash birdan 100 %lik natijani va xatolardan holi bo'lgan moliyaviy hisobotlarni bermaydi. Chunki MHXS asosida moliyaviy hisobot juda ko'plab omillar hisobidan shakllanadi. Ularni dastlabki urinishdayoq to'liq qamrab olish juda qiyin jarayon hisoblanadi. Faqat dastlabki transformatsiya jarayonida jiddiy xatolar bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Transformatsiya bo'yicha tajriba bosqichma-bosqich shakllanib boradi va natijada yildan-yilga transformasiyalanadigan moliyaviy hisobotlarning ishonchligi ortib boradi. Shu bois, O'zbekistondagi istisodiy subyektlar erdaga yaxshi natija olishi uchun MHXS asosida moliyaviy hisobot transformatsiyasini bugundan boshlashlari kerak. Agarda tashkilotlar bugun MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzishga zarurat his qilmasa, erdaga zarurat his qilishadi. Shu sababli, kelasi zaruratni qondirish uchun bugun transformatsiyani boshlashi zarur. Bizda yaxshi kadr yo'q, yetarli imkoniyat yo'q, zarur resurs yo'q va shu bois zarurat ham yo'q deb o'ylagan subyektlar katta xato qiladi.

Transformatsiya jarayonining quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchi - milliy standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot komponentlari, shuningdek balans, foyda va zararlar va boshqa hisobot moddalarining kengaytmalari aks ettirilgan analitik hisob ma'lumotlari, kerak bo'lsa boshlang'ich hujjatlarni tayyorlash kerak.

Ikkinchi - aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital elementlarini qaytadan baholash, qayta klassifikatsiyalash zarur. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlarda ham barcha tegishli moddalarni xalqaro standartlarga muvofiq holda qayta tasnif qilish va baholash zarur. Xuddi shuningdek, boshqa hisobot moddalarini ham birma-bir xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish keyslarini ishlab chiqish kerak.

Uchinchi - MHXSlari darajasiga yetkazish uchun tegishli tuzatishlar

kiritish, qo'shimcha provodkalar jadvalini ishlab chiqish kerak.

To'rtinchi - tegishli tuzatishlar buxgalteriya provodkalari yordamida kiritilgandan so'ng MHXSlari talablariga mos keladigan hisobotlarni tuzish.

4 Toshnazarov Samiddin Nizamovich 'Moliyaviy Hisobotning MHXS bo'yicha transformatsiyasi zarurati, mohiyati va bosqichlari' maqola, 7-bet



Beshinchi - MHXSlariga o'tishda atamalardan to'g'ri foydalanish juda muhim hisoblanadi. Milliy standartlar bo'yicha tuzilgan hisobotdagi atamalar, ko'rsatkichlarning nomlanishi, ularning qisqartmasini xalqaro standartlarga muvofiq keladigan atamalarga o'tkazish kerak. Agarda ko'rsatkich qayta tasniflash, baholash asosida qiymati xalqaro standartlarga mos kelsada uning nomlanishi muvofiq bo'lmasa, uni o'qish, tushunish qiyinlashadi, chalkashliklarga olib keladi. Shu bois, atamalar tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish kerak bo'ladi.

Milliy standartlar bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotga transformatsiya qilishning yagona metodologiyasi mavjud emas. Har bir iqtisodiy subyekt o'zining moliyaviy xo'jalik faoliyati xususiyati, resursi va xodimlarining professional darajasidan kelib chiqib transformatsiya jarayoni usullarini ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, barcha subyekt moliyaviy hisobotlar transformatsiyasi bo'yicha hisob siyosatini ishlab chiqishi shart. Shu bois, tashkilotdada moliyaviy hisobotlar transformatsiyasini amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi zarur:

1. Iqtisodiyot subyektida MHXSlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlariga zaruriyat bo'lishi kerak. Subyektning ichki va tashqi axborot foydalanuvchilarida MHXS bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlardan foydalanish va uning asosida qarorlar qabul qilishiga muhit yuzaga kelishi zarur;

2. Milliy standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar ishonchli, obyektiv, uyg'un va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun va O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobi Milliy Standartlariga to'liq mos kelishi zarur. Auditorlik xulosasi olinishi maqsadga muvofiqdir. Farqlanishlar va qalbakilashtirish hamda milliy standartlar talablaridan chetlanishlar katta bo'lgan hollarda transformatsiya kutilgan natijani bermaydi. Chunki BHMSlari asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar MHXSlari bo'yicha tuziladigan moliyaviy hisobotlarga xomashyo hisoblanadi.

3. Subyektning zamonaviy menejment tizimi, xususan moliyaviy departament boshqaruv tizimi, uning tarkibida moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi mavjud bo'lishi zarur.

4. Subyekt barqaror moliyaviy holatga ega bo'lishi zarur. Barqaror bo'lmagan, doimiy zarar bilan ishlaydigan iqtisodiy subyektlar moliyaviy hisobotlarini transformatsiyasi yetarli shaffof bo'lmaydi va kutilgan natijani bermaydi.

5. Subyektida MHXSlarini biladigan, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasida yetarli professional tayyorgarlikka ega bo'lgan, iqtisodiy matematikani qo'llay oladigan kadrlarga ega bo'lishi kerak. Chunki, transformatsiya qiyin, murakkab va professional yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Chet tilini mukammal biladigan va soha bo'yicha xorijda malaka oshirgan, xorijiy tashkilotlarda moliya sohasida ishlagan mutaxassislariga zarurat mavjud.

MHXS lariga mos holda moliyaviy hisobotlarni tuzishda "Mazmunning shakldan ustunligi" tamoyillariga amal qilinishi zarur. Bu shuni bildiradiki, bizning milliy hisob tizimimizda hamma jarayonlar uzluksiz va yalpi hujjatlashtiriladi. Xalqaro tamoyillar esa operatsiyalarning qanday hujjat va shaklda rasmiylashtirganligiga emas, balki uning iqtisodiy mohiyatiga e'tibor qaratadi. Masalan, adolatli qiymat asosida baholanishi ko'p jihatdan jarayonning iqtisodiy mazmunini to'laroq ta'riflaydi. Shu bois, xalqaro standartlar adolatli baholashga ustuvor ahamiyat qaratadi. MHXSlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarning bosh sifat tavsiflaridan bo'lib uning uyg'unligi, ya'ni qabul qilinayotgan qarorlarga qanchalik darajada ta'sir ko'rsata olishi hamda ishonchliliigi, ya'ni axborotlarning qanchalik darajada haqqoniy va obyektiv jarayonlarni aks ettirishini bildiradi.

Adabiyotlarni o'rganish asosida xulosa qilish mumkinki, transformatsiya jarayonini bir qancha bosqichlarga ajratish mumkin. Bunga har bir iqtisodiyot subyektini o'z imkoniyatlari va professional darajasida yondashishi kerak. Fikrimizcha, har qanday bajariladigan ishni shartli ravishda uchta bosqichga ajratishimiz mumkin, masalan dastlabki bosqich - shu ishni amalga oshirish uchun tayyorgarlik ko'rish; keyin ikkinchi bosqich - uni amalga oshirish va so'nggi bosqich - natijaga erishish va uni foydalanuvchilar va buyurtmachilarga yetkazish bosqichlariga ajratishimiz mumkin. Shu naqta nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, transformatsiya jarayonini ham shartli ravishda tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish hamda natijaga erishish va uni taqdim etish bosqichlariga ajratishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish bosqichi. Ushbu bosqichda loyiha, rejalashtirish va tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. Bu bosqichda amalga oshirilgan ishlar sifati ko'p jihatdan keyingi bosqichlarning sifatlari hamda transformatsiya natijalarini MHXSlari talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu bosqichda amalga oshiriladigan ishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- MHXSlariga o'tish-transformatsiya sanasini belgilash. Masalan, kompaniya 2023 yil MHXSlari asosida moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirsa, taqqoslama ma'lumotlarni vujudga keltirish uchun 2022-yil 31-dekabr holatida transformatsiyani boshlaydi va bu o'tish sanasi hisoblanadi.

- MHXS bo'yicha hisob siyosatini ishlab chiqish. 1-son MHHS "MHXSlarini birinchi marta qo'llash" standarti talablarini bajarish. Bu ishlar juda katta professional yondashuvni talab etadi;

- MHXSlari bo'yicha ishchi schetlar rejasini tuzish;

- Ko'rsatkichlarning nomlanishi, atamalarning xalqaro standartlarga muvofiq keladigan glasariysini yaratish;



• Transformasiya modelini, formulalarini, prosedurasini, ketma-ketligini, transformasion jadval va to'g'rilovchi provodkalar loyihalarini ishlab chiqish;

• Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish talab qilinadigan hollarda kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimiga kiruvchi sho'ba, assosiasiyalashgan kompaniyalar, bog'liq tomonlarini aniqlash. Ularning hisobot tizimlari va konsolidasiya usullarini xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash;

• Moliyaviy hisobot taqdim qilinadigan valyutani belgilab olish (O'zbekiston so'mi, AQSh dollari, Yevro yoki boshqa davlat valyuta birligi).

• Mamlakatda inflyasiya jarayonini kuzatish, indekslarini aniqlash, statistik ma'lumotlarni to'plash;

• Kompaniyada intiluvchan, yosh oliy ma'lumotli buxgalterlarning MHXSlari bo'yicha o'qishi va malaka oshirishini tashkil etish, Toshkent yoki xorijiy mamlakatlarga MHXSlarini o'rganish kurslariga yuborish, SAR va CIPA sertifikatlarini olishini ta'minlash;

• MHXSlari bo'yicha maxsus dasturlarni sotib olish va o'rnatish.

Kompaniya MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotini tuzishga tayyorgarlik ko'rishda MHXSlari bo'yicha hisob siyosatini aniqlashtirib olishlari shart. Hisob siyosatini ishlab chiqishda kompaniya barcha standartlar va ularga sharhlardagi me'yorlarga rioya etilishi talab etiladi.

Kompaniya moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni shakllantirishda 1-son MHXS "MHXSlarini birinchi marta qo'llash" standartiga muvofiq quyidagi to'g'irlashlarni amalga oshirishi shart:

a) MHXSlari bilan muvofiq holda tan olinadigan barcha aktiv va majburiyatlarni tan olinishi kerak;

b) MHXSlari bilan muvofiq holda tan olishni ko'zda tutmagan moddalarni aktiv va majburiyat sifatida tan olinmasligi kerak;

c) MHXSlari qoidalariga muvofiq holda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aktivlar, majburiyatlar va kapital moddalarini qayta klassifikasiya qilish;

d) MHXSlariga muvofiq holda aktiv va majburiyatlarni baholashni amalga oshirish.

2. Transformasiya jarayoni prosedurasini amalga oshirish bosqichi.

Ushbu bosqich asosiy bosqich bo'lib, unda barcha tayyorgarlik ishlaridan keyin farqlar aniqlanadi, korrektirovka buxgalteriya yozuvlari tuziladi, ishchi transformasion jadvallar amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda real amalga oshiriladigan ishlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

• Transformasiya uchun axborot yig'ish;

• Transformasiya bazasi sifatida kiritiladigan qoldiqlarni hisoblash, transformasiyalanadigan boshlang'ich balans va boshqa hisobotlarni tayyorlash;

• Baholanadigan aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlar, transformasiyalanadigan boshqa moddalarning ro'yxati va tarkibini aniqlab chiqish kerak, ayrim hollarda milliy standartlar bo'yicha hisobda aks ettirilmagan bo'lsa ham, MHXS bo'yicha hisobga qabul qilinishi shart;

• To'g'rilashlar (korrektirovka) kiritish jabhalarini aniqlash;

• Moliyaviy hisobotning komponentlari, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital o'zgarishi hamda pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot, izoh va tushuntirishlarning MHXSlarga muvofiq formatini ishlab chiqish;

• Hisob obyektlarini MHXSlariga muvofiq qayta klassifikasiyasini (reklassifikasiya), qayta guruhlashni amalga oshirish;

• Hisob obyektlarini kompaniyada MHXS asosida ishlab chiqilgan hisob siyosatida ko'zda tutilgan qoidalar, tamoyil va usullar asosida qayta baholashni amalga oshirish, MHXS va BHMSlar bo'yicha tan olish va baholash o'rtasidagi farqlar summasini aniqlash;

• Transformasiya yozuvlarini tayyorlash, korrektirovka provodkalarini tuzish va shu hujjatlar asosida ishchi transformasion jadvalni tuzish;

• Inflyasiya jarayonini hisobga olgan holda ko'rsatkichlarga to'g'irlashlar kiritish va uni ishchi transformasion jadvalda aks ettirish;

3. Natijaviy bosqich. Korrektirovkalar amalga oshirilgandan keyin MHXSlariga muvofiq moliyaviy hisobot tuziladi va taqdim etiladi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

• MHXS asosida boshlang'ich buxgalteriya balansini tuzish;

• MHXS formatidagi buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital harakati to'g'risidagi hisobot, pul oqimi to'g'risidagi hisobot, izohlar va tushuntirishlarni tayyorlash;

• MHXSlarga muvofiq tuzilgan hisobotlarni xorijiy valyutaga ag'darish.

• MHXSlarni axborot foydalanuvchilarga taqdim qilish.

Transformasiya usuli o'zining afzallik va kamchiliklariga ega.

Transformasiya usulining afzalliklari:

• Parallel hisob yuritishga nisbatan kam xarajatli va tejamkor hisob tizimi hisoblanadi;

• Hisob yuritishda vaqtdan yutiladi;



• Hisob yuritish prosedurasi parallel hisob yuritishga nisbatan ancha sodda, agar bir marta yaxshi prosedura ishlab chiqilsa, ma'lumotlarga ishlov berishda qiyinchiliklar bo'lmaydi, ma'lumotlarning ishonchligi erishish mumkin;

• Ushbu usulning natijadorligi o'rnatilgan prosedura, model, metod va xodimning professional bilimiga bevosita bog'liqligi;

• Korrektirovka yozuvlarining ko'rgazmaliligi, ya'ni farqlanishdagi aniq xulosa qilish mumkinligi;

• Har yili tizimni takomillashtirib borish, samaradorliroq usullarni hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish mumkinligi, natijada bir necha yillar ichida shu kompaniyaga mos mukammal tizimni shakllantirish imkoniyati yuzaga kelishi, uni nau-xau deb baholash mumkinligi.

Transformasiya usulining kamchiliklari:

• Xato qilishning riski katta, ma'lumotlarni salmoqli qalbakilashtirish ehtimoli mavjudligi;

• Subyektiv yondashuv, subyektiv baholashga yo'l qo'yilishi mumkin;

• Faqat hisobotdagi ma'lumotlar transformasiyalanishi bilan cheklanishi, transformasiya oraliq jamlanma axborotlar va boshlang'ich hujjatlardagi axborotlarga yetib bormaydi;

• Hisobning operativligi sust;

• BHMSlari bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotga qaramligi mavjud. U tuzilmasa MHXSlari bo'yicha hisobotni tuzib bo'lmaydi;

• BHMSlari bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotda xatoliklar va kamchiliklar mavjud bo'lsa u albatta transformasiyalangan hisobotga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi;

• Vaqtdan boy berib qo'yish ehtimoli mavjud. Chunki, BHMSlari asosida moliyaviy hisobot tuzilgandan keyin bu hisobot tuziladi. Bu ancha vaqtni oladi;

• Bir kompaniyada ishlab chiqilgan transformasiya prosedurasi va metodlarini to'laligicha boshqa kompaniyaga qo'llab bo'lmaydi. Har bir kompaniyada o'zgacha yondashuv talab etiladi.

• Boshlang'ich qiymat, operatsiya yuz bergan vaqtdagi valyuta kursi, haqiqiy tannarxi kabi operatsiya yuz bergan paytdagi qo'llaniladigan taomillardan foydalanish imkoniyati yo'qligi, natijada o'rta miqdordan foydalaniladi. Bu esa haqiqiy qiymatdan chetlanishlarga olib kelishi mumkin.

Xalqaro moliyaviy hisobot deganda, MHXS yoki AQShning GAAP standartlariga muvofiq holda tuzilgan moliyaviy hisobotga aytiladi. Ushbu ikkita turdagi standartlar dunyodagi barcha fond birjalari uchun moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish qoidalarini tartibga soladi va ushbu birjalar tomonidan tan olinadi.

Xalqaro Moliyaviy Hisobotlar Interpretasiyasi bo'yicha Qo'mitaga 14ta mamlakatlardan, shu jumladan buxgalter/auditorlik professiyasi, moliyaviy hisobotni tuzuvchi va foydalanuvchi guruhlarning vakillaridan iborat.

Ushbu Qo'mitaga quyidagi funksiyalar yuklatilgan:

• MHXS (BHXS va MHXS) qo'llanilishini ochiqlash va MHXSlarida ko'rib o'tilmagan hisob masalalariga doir tavsianomalarni taqdim etish hamda MHXSK talabi bilan boshqa majburiyatlarni bajarish;

• MHXSK tomonidan interpretasiya loyihalari ko'rib chiqilgandan so'ng intrepritsiyalarni yakuniy qabul qilingunga qadar maqbul bo'lgan vaqt oralig'ida jamoatchilik sharhlarini olish uchun ularni ommaviy nashr ettirish;

• MHXSKga hisobot berish va undan interpretasiyalarning yakuniy loyihasi tasdig'ini olish;

• Yuqoridagi funksiyalarni bajarishda butun dunyoda moliyaviy hisobot standartlarini maksimal yaqinlashtirishni ta'minlash uchun moliyaviy hisobotning milliy standartlari bilan faol ishlash bo'yicha MHXSKga murojaat etish.

MHXSlarni qabul qilish jarayoni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining yuqori sifatda tayyorlanishini ta'min etishga harakat qiladi. Chunki, standartlar aniq iqtisodiy muhitda unga monand bo'lgan buxgalteriya amaliyotini qo'llashni ko'zda tutadi. Standartlarni qabul qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Muammoni har tomonlama tahlil qilish hamda "Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilishning konseptual asoslari" qo'llanilishining imkoniyatlarini baholash;

2. Buxgalteriya hisobining milliy talablari va amaliyotini o'rganish va standartlarni belgilaydigan milliy organlar bilan fikr almashish;

3. Vasiylik Instituti va Maslahat Kengashi bilan MHXSKning kun tartibiga mazkur mavzuni kiritish bo'yicha maslahatlar o'tkazish;

4. Ishchi guruhni tuzish;

5. Umumiy keng jamoatchilik muhokamasi uchun diskussion hujjatlarni (Discussion paper) nashr ettirish;

6. Umumiy keng jamoatchilik muhokamasi uchun standart loyihasini ("Exposure draft") nashr ettirish;

7. Standart loyihasi bilan birgalikda "Qarorlar qabul qilish uchun Asoslar" (Basis for Conclusion) hamda standart loyihasining holatlari bilan rozi bo'lmagan MHXSK a'zolarining pozitsiyasini aniqlash;

8. Sharhlarni yig'ish uchun ajratilgan davr davomida olingan barcha sharhlarning ko'rib chiqilishi;

9. Agar zaruriyat bo'lsa standartlarni qo'llay olmaslik darajasini jamoatchilik eshituvlari va test o'tkazishni amalga oshirish;



10. Standartlarni tasdiqlash, agar shu talab etilsa, buning uchun eng kamida MHXSKning 9 ta a'zosi ovozi talab etiladi:

11. Standartni Qarorlar qabul qilish Asoslari bilan birga nashrdan chiqarish, qaysiki unda boshqa holatlar hamda standartlarni yaratishlar bilan bir qatorda MHXSKning professional jamoatchiligidan olingan tanqidiy e'tirozlarga sharhi hamda MHXSK a'zolari nuqtai nazarlari keltiriladi.

MHXSlarini ishlab chiqish jarayonida Kengash standartda ko'rib chiqilayotgan masalalar muhokama uchun muammoli maqolalar chop ettirish orqali yoritib berish lozimligi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari mamlakat iqtisodiyotning milliy xususiyatlarini, milliy Qonunlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va mamlakat ichida qo'llaniladigan standartlar tizimini o'z ichiga oladi. Milliy hisob standartlarini baholashda ularning MHXS talablariga uyg'unligiga ahamiyat berish muhimdir. Dunyoning turli xil mamlakatlarida milliy professional tashkilotlar milliy standartlar tizimini ishlab chiqqanlar. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning milliy standartlari asosiy jihatlari xalqaro standartlarga uyg'undur.

IASC uchta kategoriyadagi rasmiy nashrlarni amalga oshiradi:

- Moliyaviy Hisobotni Tuzish va Taqdim Qilish Konseptual Asoslari;
- Moliyaviy Hisobotning Xalqaro standartlari;
- CIA hamda IFRSlar.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy buxgalteriya hisobi asoslarini tashkil qilish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar qatoriga, jumladan quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Buxgalteriya hisobining xalqaro amaliyot yutuqlaridan foydalanib, milliy yutuqlarimiz va xususiyatlarimizni inobatga olib, hisobning umumqabul qilingan prinsiplari va qoidalarini ishlab chiqish;

2) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi milliy hisob standartlarini chuqur o'rganish asosida, milliy xususiyatlarimizni inobatga olib, bosqichma –bosqich O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlarini ishlab chiqish;

3) Kompaniyalar boshqarish tizimida moliyaviy hisobning obyektlari xususidagi moliyaviy axborotlarni shakllantirish va foydalanish bilan shug'ullanuvchi maxsus mutaxassislashgan bo'lim tashkil qilish.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga o'tishning o'ziga xos yo'lini tanladi, ya'ni dastlab prinsiplarni o'z ichiga olgan konseptual asos ishlab chiqildi, so'ngra buxgalteriya hisobi milliy standartlarni bosqichma-bosqich ishlab chiqishga kirishildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi xalqaro standartlarga o'tish davri uchun bir qancha vaqtinchalik choralar ko'rish bo'yicha qilindi:

- Milliy standartlar bo'yicha hisob yuritayotgan va yaqin pirovardida xalqaro standartlarga o'tishni reja qilgan tashkilotlar avvalo, yo'ldagi tovarlar hisobini yaxshi yo'lga qo'yib olishi zarur ekan. Ya'ni ularni balansiga o'tishi bilan hisobda aks ettirish muhim ahamiyatga ega ekan. Yo'ldagi tovar yoki mahsulotlar hisobot qilinayotgan davrda hech qayerda aks ettirilmaligi ushbu iqtisodiyot subyekti haqida to'liq xulosa qilishimizga to'sqinlik qilar ekan. Yo'ldagi tovarlarni aks ettirmaslik foyda-zararimizga, aktivlarimiz yoki passivlarimizni kamaytirib yoki ko'paytirib ko'rsatishimizga olib kelyapti ekan. Shuning uchun yo'ldagi tovar va mahsulotlar uchun ham alohida elektron baza tashkil qilish kerak deb o'yladik;

Moliyaviy hisobotlar asosida hisobotlarni tayyorlash hozir zarurat bo'lmasligi mumkin, lekin yaqin yillarda ushbu shaklda tayyorlash iqtisodiyot subyektlari uchun suv va havodek zarur bo'lib qoladi. Chunki hukumatimiz tomonidan Xalqaro Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni faol olib borilmoqda va bu iqtisodiyotimizni aksariyat tarmoqlarini nafaqat Osiyoda, balki butun dunyo bo'ylab raqobat qilishiga to'g'ri keladi va bunda xalqaro standartlar asosida tayyorlangan hisobotlar muhim ro'l o'ynaydi deb hisoblaymiz.

- Xalqaro standartlarga rioya qilingan moliyaviy hisobotlar bo'yicha tadqiqotlar, ilmiy yutuqlar va moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish va rivojlantirish uchun yaxshi sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish jarayoni bir necha yillar avval boshlangan bo'lsada, amalga oshirilayotgan ishlar o'z samarasini sekinroq ko'rsatmoqda. Qonunchilikda aniq talab va takliflar ko'rsatib o'tilgan, lekin u ko'rsatmalarni iqtisodiyot qabul qila olmayapti. Bunda qonun chiqaruvchilarni iqtisodiyot subyektlari bilan faol ishlagan holda qonunlarni ularga moslashtirish ushbu sohada ishlar ko'lamini va samarasini tezroq ko'rsatgan bo'lardi. Bundan tashqari yuqorida qilingan yangilik va takliflardan kelib chiqib, milliy standartlar bo'yicha ba'zi (yo'ldagi tovarlar, rezervlar, qaram xo'jaliklari bilan konsolidatsiyalashgan hisobotlar va kredit qaytarilishi) hisob siyosati amaliyoti o'zgartirilishi milliy standartlar bo'yicha tuzilayotgan hisobotlarni transformatsiyasida yangiliklarni olib kelgan bo'lardi, deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги қонуни (янги таҳрири). 2016 йил 13 апрель. №404.
2. Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари. Тўплам. – Тошкент, “NORMA”, 2018.
3. Международные стандарты финансовой отчетности: Издание на русском языке. – М.: “АСКЕРИ-АССА”, 2016.
4. Ташназаров С.Н. Молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи: халқаро ва миллий жиҳатлари. Монография. – Т.: “Иқтисод-Молия”, 2009 й. -168-б.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---